

Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida, Namangan viloyatida jami 15483,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamika



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	15483,1	110,1
Mingbuloq tumani	561,3	112,2
Kosonsoy tumani	679,7	113,8
Namangan tumani	568,9	110,8
Norin tumani	420,5	106,4
Pop tumani	705,4	108,8
To'raqo'rg'on tumani	528,1	119,4
Uychi tumani	1303,5	105,4
Uchqo'rg'on tumani	708,4	126,0
Chortoq tumani	736,6	111,7
Chust tumani	594,4	111,2
Yangiqo'rg'on tumani	534,8	113,0
Namangan shahar	3075,1	110,0
shundan		
Davlatobod tumani	1205,0	109,5
Yangi Namangan tumani	723,0	120,5
Taqsimlanmagan	5066,4	112,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 82,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,0 marta ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 7,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 10,8 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 279,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm	528,6	601,9	115,3
o'sish sur'ati, %	242,8	102,9	173,2
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm	3920,2	495,2	1562,5
o'sish sur'ati, %	104,8	46,3	292,9
Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm	8259,4	-	-
o'sish sur'ati, %	-	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-dekabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1245,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,2 % ga kamayib, 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 38,6 % i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,1 % ga ko'payib. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,9 % ni tashkil etgan holda 5977,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 53,3% mos davriga nisbatan 0.1 % ga ko'paygan yoki 8259,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,1 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Namangan viloyati	1245,8	5977,9	8259,4	108,7	111,9	109,1
Mingbuloq tumani	7,6	326,3	227,4	91,6	116,7	107,0
Kosonsoy tumani	4,9	255,8	419,0	25,8	139,6	105,8
Namangan tumani	33,1	290,5	245,3	60,0	124,7	108,7
Norin tumani	6,0	173,9	240,6	60,3	109,2	106,5
Pop tumani	283,9	210,3	211,2	81,7	213,8	104,2
To'raqo'rg'on tumani	16,9	242,4	268,8	47,6	142,9	113,1
Uychi tumani	293,9	736,2	273,5	1938,7	75,1	113,6
Uchqo'rg'on tumani	76,4	297,5	334,5	425,9	124,7	109,0
Chortoq tumani	27,7	404,1	304,8	61,9	122,1	107,3
Chust tumani	17,5	247,4	329,5	134,0	113,7	108,3
Yangiqo'rg'on tumani	15,0	216,9	303,0	77,8	122,3	109,4
Namangan shahar shundan	281,8	2166,1	627,1	69,8	113,9	128,7
Davlatobod tumani	66,7	984,5	153,8	247,3	104,1	120,7
Yangi Namangan tumani	169,3	360,6	193,1	173,7	107,6	115,4
Taqsimlanmagan	181,1	410,6	4474,7	115,7	110,1	107,3

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Uychi tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 19,3 marta), va Uchqo'rg'on tumanida (4,2 marta qayd etildi).

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Pop tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 213,8 %) va Kosonsoy tumanida (139,6 %) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Namangan shahar (2024-yilning mos davriga nisbatan 128,7%), Uychi tumanida (113,6 %) va To'raqo'rg'on tumanida (113,1 %) qayd etildi.

V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.